



INNOVATIVE IDEAS TO IMPROVE BOOK READING AND MATHEMATICAL LITERACY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Egamova Anora Kholikovna¹

¹ Shafirkan district of Bukhara region

An elementary school teacher at School 25

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5132688>

ARTICLE INFO

Received: 10th July 2021

Accepted: 15th July 2021

Online: 24th July 2021

KEY WORDS

elementary school, ZOOM, reading, distance learning, math literacy, online, methods, PISA, seminar training.

ABSTRACT

This article discusses important changes in the current education system, innovations, new approaches to teaching, ways to effectively use modern pedagogical technologies in the classroom, the specifics of group work in the organization of lessons and the book in the primary school thinks about the use of interactive methods in improving reading and mathematical literacy.

BOSHLANG'ICH SINFD A O'QUVCHILARNING KITOB O'QISH VA MATEMATIK SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION G'OYALAR

Egamova Anora Xoliqovna¹

¹ Buxoro viloyati Shofirkon tumani

25-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-iyul 2021

Ma'qullandi: 15-iyul 2021

Chop etildi: 24-iyul 2021

KALIT SO'ZLAR

boshlang'ich sinf, ZOOM, mutolaa, masofaviy ta'lim, matematik savodxonlik, onlayn, metodlar, PISA, seminar trening.

ANNOTATSIYA

ushbu maqolada hozirgi vaqtdagi ta'lim tizimidagi muhim o'zgarishlar, yangiliklar, bilim berishdagi yangicha yondashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida samarali qo'llash usullari, dars tashkil qilishda guruh bilan ishlashning o'ziga xos jihatlari va boshlang'ich sinfd a kitob mutolaasi va matematik savodxonlikni oshirishda interaktiv metodlardan foydalanish haqida fikr yuritadi.

Eshitdim – unutdim. Ko'rdim – eslab qoldim. Bajardim – tushundim.

Kanfutsiy

Har bir sohada bo'lgani kabi, ta'lim berish jarayoni o'zining murakkabligi va mashaqqati bilan maroqlidir. Kelajak avlod siz bergan ta'lim-tarbiya bilan kamol

topishining o'zi insonga motivatsiya bag'ishlaydi. Umumta'lim maktablarida bugungi kunda fanlarni o'qitishda ko'pgina o'zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, yoshlar uchun muhim bo'lgan sohalarga bo'lgan e'tibor katta. Mamalakatimiz tobora rivojlanib va taraqqiy topib borar ekan, bugungi kunda eng so'nggi zamon



texnologiyalariga talab va taklif kuchaymoqda. Shu sabab, o'quv jarayonini jahon ta'lim standartlari bilan solishtirgan holda olib borish uchun ko'plab seminar treninglar tashkil qilinmoqda. Ayniqsa, kutilmagan vaziyatda yer yuzi muammosiga aylanib ulgurgan pandemiya holatida masofaviy ta'lim tizimining yo'lga qo'yilishi ta'lim sohasiga bir qancha o'zgarishlarni olib kirdi. Uydan chiqmagan holda bilim olish, o'qish va izlanish uchun ZOOM dasturi orqali onlayn tarzda o'qish, ilmiy konferensiyalarni, seminar va brifinglarni onlayn tashkil qilish tizimi ishga tushdi. Bu kabi qulayliklarning yaratilishidan asosiy maqsad, o'sib kelayotgan yosh avlodni bilimli va salohiyatli insonlar qilib yetishtirishdan iborat. Ta'lim inspeksiyasi, va UNISEF tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda maktablarda o'qitish metodikasi, darsliklar va baholash aynan "yodlashga va bilimni to'g'ridan to'g'ri yetkazishga" yo'naltirilganligi salbiy holat sifatida baholangan. PISA xalqaro tadqiqotlarida muvaffaqiyatli ishtirok etgan davlatlar tajribasi yurt kelajagi, aynan ijodkor, nostandart fikrlaydigan, mustaqil tadqiq etish va olgan bilimni qo'llash ko'nikmalariga ega yoshlar qo'lida ekanligi tasdiqlanmoqda. Shu sababli, ta'lim sohasida keyingi 2 yilda fanlarni o'qitish, darsliklarni tayyorlash, o'qituvchilar malakasini oshirish, baholashda keng ko'lamli islohatlar olib borilmoqda. Mamlakatimizning 2021-yilda PISA, 2022 yilda TIMSS dasturlarida ishtirok etishi belgilandi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili, o'qish va matematika dasrlarini tashkil qilishda juda ko'p qiziqarli metodlar mavjud. Bulardan mohirona foydalanish esa o'qituvchiga

bog'liq. Matematikada qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallarini o'rgatishda "Top-top" usulidan, taqqoslash, sholishtirish darslarida "Venn diagrammasi", tartib va sanoq sonlarni o'qitishda "Topqirlar o'yini" usulidan, turli xil masalalarni ishlashda "Sirli sandiqcha" usulidan foydalanish mumkin. Ona tili darslarini o'qitishda asosiy e'tibor og'zaki va yozma nutqni o'stirishga qaratiladi. Shu bois, ko'proq kitob mutolaa qilish, matn ustida ishlash, gap tuzish, diktant, og'zaki suhbat mashg'ulotlari yaxshi samara beradi. Bundan tashqari "Sinkveyn", "Aqliy hujum", "Zinama zina", "So'z o'yini" mashg'ulotlari ham nutq o'stirishda juda foydali. O'qish fanini o'qitishda esa ertak va she'rlar, rivoyatlar asosida suhbat, rasmlar asosida gapirtirish, har bir mavzudan keyin asosiy g'oya orqali xulosa chiqarishga o'rgatish muhim hisoblanadi. Umuman olganda, har qanday darsda ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'qituvchi astoydil izlanmog'i, yangilik yasratishi va ijodkor bo'lishi lozim. Talabchanlik o'quvchilarni chaqqonlikka, zukkolikka va tezkor bo'lishga undaydi.

Badiiy kitob o'qishga qiziqish o'quvchida o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Buning uchun unga nimadir turtki bo'ladi. Aksariyat hollarda esa, bolaligidan ertak va hikoyalar eshitib katta bo'lgan va ko'p she'r yod olgan bo'lib chiqadi. O'quvchini kitobxonlikka o'rgatishda ota-ona bilan hamkorlikda ish olib borish zarur. Uyda bolaga qilgan ishi uchun rag'batlantirishda kitob sovg'a qilish, kitob o'qisa qandaydir iltimosini bajarishga undash orqali ham ijobiy natijaga erishish mumkin. O'qituvchi esa darsda mavzuga bog'lagan holda qandaydir kichik bir rivoyat yoki mavzuga misol bo'luvchi dalil o'qib berib, qo'lidagi



kitobning judayam foydali va qiziqarli ekanligi haqida aytib ketsa ham, o'quvchida shu kitobni topib o'qib ko'rishga qiziqish uyg'onadi. Va buning natijasida nutq o'sadi, fikr ravon bo'ladi.

Bugungi sinovli vaziyatda, bola tarbiyasi va uning sifatli bilim olishida o'qituvchilar bilan teng qatorda ota-onalar ham mas'uliyatli bo'lmog'i lozim. Zero, kelajak avlod, yurt ishonchi, mamlakat taraqqiyoti

garovi va poydevori hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, har qanday davlatning rivojlanib, taraqqiy topishi uchun eng asosiysi, o'sib kelayotgan yosh avlodlarning munosib ta'lim va tarbiya egallashi hisoblanadi. Buning uchun esa barchamiz birgalikda harakat qilmog'imiz va yoshlar kelajagining bardavom bo'lishi uchun hozirdanoq harakat qilmog'imiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Kitob mahsulotlarini chop etish va rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida. / "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil 13-yanvar
2. Kurbanov Sh.Ye, Seytxalilov Ye. A. Ta'lim sifatini boshqarish. – T.: Shark.
3. kitob.uz